XALQ DEPUTATLARI OLMALIQ SHAHAR KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 4 - oktabr VI-78-94-10-147-K/23 Olmaliq shahar hokimligi

Olmaliq shahridagi ayrim ko‘chalar nomlarini o‘zgartirish va yangi nom berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-303-sonli Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha hududiy komissiyalar to‘g‘risida”gi 295-sonli qaroriga asosan Olmaliq shahar hokimligi huzuridagi “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunni amalga oshirish va toponimik obyektlarga nom berish bo‘yicha shahar komissiyasining 2023-yil 12-apreldagi 01-08/125-sonli yig‘ilish bayoni bo‘yicha Toshkent viloyati hokimligi huzuridagi “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunni amalga oshirish va toponimik obyektlarga nom berish bo‘yicha viloyat komissiyasining 2023-yil 11-maydagi 1/12-4-2111-sonli javob xatida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligidan olingan (2023-yil 5-may 08-03306-sonli javob xati) ekspert xulosasi (2023-yil 1-maydagi 00859-son)ga ko‘ra, Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Olmaliq shahar hokimligi huzuridagi “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunni amalga oshirish va toponimik obyektlarga nom berish bo‘yicha shahar komissiyasining 2023-yil 12-apreldagi 01-08/125-sonli yig‘ilish bayoni bo‘yicha Toshkent viloyati hokimligi huzuridagi “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunni amalga oshirish va toponimik obyektlarga nom berish bo‘yicha viloyat komissiyasining 2023-yil 11-maydagi 1/12-4-2111-sonli javob xatida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligidan olingan (2023-yil 5-may

08-03306-son) javob xatining ilovasidagi ekspert xulosasi (2023-yil 1-maydagi 00859-son) va bu yuzasidan Olmaliq shahar hokimining maslahatchisi M.Shanayevning hisoboti ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Olmaliq shahridagi ayrim ko‘chalarning nomlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Mazkur qaror loyihasi 2023-yilning 09-avgust sanasidan 24-avgust sanasiga qadar jamoatchilik muhokamasi portalida (ID:84333) jamoatchilik muhokamasidan va shahar Adliya bo‘limining huquqiy ekspertizasidan o‘tkazilganligi ko‘rsatib o‘tilsin.

4. Shahar hokimi o‘rinbosarlari (Begiyev, Ahmedov, Abdulhayev, Minavvarova), shahar hokimining maslahatchisi (Shanayev), shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi va boshqa tegishli tashkilot va idoralar rahbarlariga:

Belgilangan tartibda geografik obyektlarning yangi nomlarini tegishli elektron bazalarga kiritish, ish hujjatlariga, ko‘rsatkichlar va peshlavhalarga o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha chora-tadbirlarni amalga oshirsinlar.

5. Shahar Ichki ishlar bo‘limi (Sayidov) mazkur qaror bilan nomlari o‘zgargan mahalla va ko‘chalarda yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga, mazkur hudud aks ettirilgan yo‘l belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini amalga oshirsin.

6. Olmaliq shahar hokimi matbuot kotibi – axborot siyosati masalalari bo‘yicha hokim maslahatchisi (Ro‘ziyeva)ga mazkur qarorning ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritilishini tashkil etish vazifasi yuklansin.

7. Mazkur qaror imzolangan kundan e’tiboran kuchga kirishi belgilab qo‘yilsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi D.Karimov va Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashining Ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi A.Xasanovlar zimmasiga yuklatilsin.

Kengash Rahbari **Q.Xamdamov**

Xalq deputatlari Olmaliq shahar
Kengashining
2023-yil 4-oktabrdagi
VI-78-94-10-147-K/23-son qaroriga
1-ilova

Olmaliq shahridagi yangi nom berilgan va nomi o‘zgartirilgan ko‘chalar to‘g‘risida

MA’LUMOT

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Geografik obyektga berilgan yangi nom yoki o‘zgartirilgan nomi	Ekspert komissiyasining xulosasi
1	Ko‘cha	“Ahmad Yassaviy”, “Tinchlik”, “Furqat” mahallalari	“Zulfiya Qo‘shboy qizi”	“Zulfiyaxonim”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2	Ko‘cha	“Ko‘rpasoy” mahallasi	“Ag‘zamov”	“Charog‘on”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3	Tor ko‘cha	“Bo‘ston” mahallasi	7/1 kichik nohiya	“G‘alaba”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4	Ko‘cha	“Zarbuloq” mahallasi	Nomsiz (“Ma’rifat”)	“Ma’rifat”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
5	Ko‘cha	“Olmaliqsoy” mahallasi	“Ma’rifat”	“Muborak”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.